



SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMIDAGI IJTIMOIY ISH: BEMORLAR VA ULARNING OILALARINI QO'LLAB-QUVVATLASH.

Ilmiy rahbar: Sherov Ma'ruf Boltaevich

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat Universiteti dotsenti

Xolto'rayeva Zahro Doniyorovna

Samarqand Davlat Universiteti Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti

Ijtimoiy ish yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Xidirova Moxigul Tolib qizi

Samarqand Davlat Universiteti Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti

Ijtimoiy ish yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Respublikada sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish chora-tadbirlarini amalga oshirish doirasida aholiga tibbiy yordam ko'rsatishning zamonaviy tizimini shakllantirish borasida muayyan ishlar yo'lga qo'yilmoqda. Shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatishning yagona markazlashgan tizimi yaratish, fuqarolarga joylarda yuqori texnologiyalarga asoslangan tibbiy yordam ko'rsatuvchi respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari tarmog'i takomillashtirilmoqda.

Kalit so'zlar: Salomatlik, ijtimoiy ish, bemor, bola, oila, sog'liqni saqlash, tibbiyot markazlari, patronaj, qishloq vrachlik punktlari, tibbiy yordam, ta'lim.

Mamlakatimiz aholiga ko'rsatiladigan tibbiy xizmatlar sifatini tubdan oshirishga, sog'liqni saqlash davlat tizimining kadrlar salohiyatini mustahkamlashga, tibbiyot muassasalarining resurslar salohiyatini yaxshilashga qaratilgan sog'liqni saqlashni isloh qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Sog'liqni saqlashning milliy tizimini jadal rivojlantirish ishlarini tizimli va sifatli tashkil etish uchun umumiy amaliyot vrachlarining, patronaj tibbiyot hamshiralalarining, qishloq vrachlik punktlari, shoshilinch va tez tibbiy yordam xizmati xodimlarining lavozim maoshlari oshirildi, respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiy markazlarida mehnatni rag'batlantirishning bozor usullari belgilandi.

Tibbiyot xodimlarining mehnatini baholash hamda ular oladigan ish haqqi va mukofotning bajariladigan ishning murakkabligi va ko'rsatiladigan tibbiy xizmat sifatiga anniq va bevosita bog'liqligini ta'minlashning ilg'or mexanizmlari joriy etildi. Shu bilan birga, mamlakat sog'liqni saqlash tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish zarur bo'lgan sharoitda tibbiyot sohasini boshqarishning innovatsion modelini joriy etish, tibbiyot xodimlarini moddiy rag'batlantirishni davom ettirish, ularning kasbiy darajasini oshirish uchun munosib shart-sharoitlar va rag'batlantiruvchi omillar yaratish masalalari davlatning diqqat markazida turadi.

Mamlakatimiz taraqqiyotida avvalo jismonan va ruhan sog'lom insonlarning o'rni doim muhim .O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng dunyoning rivojlangan mamlakatlari bilan sobiq ittifoq davrida inqirozga yuz tutgan ijtimoiy sohani qaytadan tiklash maqsadida ko'plab manfaatli hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'ydi. Ijtimoiy himoya

va sog'liqni saqlash tizimidagi mavjud holatni yaxshilash, zamonaviy yondashuvni joriy etish va hamda chet el tomonidan investitsiyalarni jalgan etish maqsadida xalqaro mamlakatlar bilan aloqalarni o'rnatish, hamkorlik ishlarini har tomonlama yo'lga qo'yemoqda. O'zbekistonda ijtimoiy soha hamda sog'liqni saqlash tizimidagi hamkorlik munosabatlarda qo'shma loyihalar ham alohida e'tiborga ega. Sog'liqni saqlash hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlami muammolarini o'rganish, ularni tizimli tahlil qilish, mavjud kamchiliklarni hal etish borasida ko'plab ilmiy izlanishlar hamda amaliy tajribalar olib borilmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017-yildan 2019-yillar oralig'ida butun tibbiyat sohasini isloh qilish maqsadida sog'liqni saqlash tizimiga oid 160 dan ortiq qonunchilik hujjatlarini qabul qilinishi mazkur sohada amalga oshirilayotgan ijobiy ishlarning asosi bo'lib xizmat qilib kelmoqda.

Tibbiyat sohasidagi mazkur ishlar ko'lamiga, malakaviy tibbiy xodimlar bilan ta'minlangan, zamonaviylashtirilgan, zamonaviy tibbiy xizmat ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lgan markazlarni tashkil etish shuningdek, arzon va za'rur bo'lgan doridarmonalarni nazoratiga oid ishlar kiradi. Tibbiyat sohasida ayniqsa bolalar sog'lig'i bilan bog'liq bo'lgan masalalarda olib borilayotgan modernizatsiya va tibbiyotdagi innovatsiya ishlarining ko'lami yildan yilga taraqqiy etmoqda. Buning natijasida ijtimoiy himoyaga muhtoj, sog'lig'ida muammosi bor bolalar jarrohlik amaliyotlarini amalga oshirib, ularni rehabilitatsiya qilish bilan bog'liq muammolarning xal etilishi, shuningdek mablag', vaqt va mavjud holatlarni inobatga olgan holda tibbiyat markazlarining ishga tushurilishi bolalar jarrohlik amaliyoti bilan bog'liq ko'plab muammolarni hal etishda katta ahamiyat kasb etadi. Bu esa tibbiyat va ijtimoiy sohadagi ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlarning yuqori istiqbolini belgilab beradi.

Davlat tibbiyat muassasalari va sog'liqni saqlash boshqarmasi organlari xodimlarini ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirish, ularning moddiy manfaatdorligini oshirish, samarali ishlashi uchun munosib shart-sharoitlar yaratish, yuksak professional kadrlar salohiyatini shakllantirish maqsad qilib olingan. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash vazirligi va Innovatsion sog'liqni saqlash milliy palatasi Moliya vazirligi hamda Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi bilan birgalikda xalqaro tajribani o'rganish asosida 2019-yil 1-iyulgacha bo'lgan muddatda tibbiyat va farmasevtika xodimlarining mehnatiga xaq to'lash tizimini tubdan qayta ko'rib chiqish bo'yicha quyidagilarga yo'naltirilgan takliflarni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritgandir. Davlat tibbiyat muassasalari tibbiyat va farmatsevtika xodimlarining lavozimiga va malakasiga, ko'rsatiladigan tibbiyat yordamning murakkablik va javobgarlik darajasi, shuningdek, davolash-profilaktika muassasalari ixtisosligiga qarab bazaviy lavozim maoshlarini joriy etish ko'zda tutilgan.

Tibbiyat hodimlari faoliyatini va mehnati unumdorligini baholashning zamonaviy usullarini, shu jumladan, davolangan bemorlar elektron statistikasini bosqichma-bosqich tadbiq etish va bemorlar o'rtasida onlayn so'rovlar o'tkazish orqali yutuqlarga erishmoqda. Tibbiyat va farmasevtika xodimlarini moddiy rag'batlantirishning amaldagi tartibini tubdan qayta ko'rib chiqish, ular bajaradigan ishlar sifati, erishiladigan natijalar va ko'rsatilgan tibbiy xizmatlarga jamoatchilik tomonidan berilgan baholarga qarab ularga haq to'lanishini

ta'minlash za'rur. Tibbiyot muassasalari rahbarlariga alohida o'rnak ko'rsatgan vrachlarga Tibbiyot tashkilotlarini moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan ta'rif stafkasining 100 foizigacha bo'lgan miqdorda har oylik shaxsiy ustamalar belgilash huquqini berish ko'zda tutilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi 2018-yilda O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari hisobiga tibbiyot va farmasevtika xodimlari mehnatiga to'lanadigan haq miqdori oshirilishi munosabati bilan davlat tibbiyot muassasalarining qo'shimcha xarajatlari moliyalashtirilishini, 2019-yilda va keyingi yillarda O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti parametrlarini shakllantirishda byudjetdan ajratiladigan zarur mablag'lar nazarda tutulishini aytib o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasi Sog'lijni saqlash vazirligi, Moliya vazirligi hamda Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining Sog'lijni saqlash vazirligi huzurida yuridik shaxs maqomiga ega bo'limgan, rivojlantirish va sog'lijni saqlashni boshqarish organlari xodimlarini moddiy rag'batlantirish jamg'armasi tashkil etish to'g'risidagi taklifi ko'rib chiqilgan.

Quyidagilar Jamg'arma mablag'larini shakllantirish manbalari etib belgilangan:

1) Davlat tibbiyot muassasalari tomonidan pullik asosda ko'rsatilgan tibbiy xizmatlar, shu jumladan, respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari xizmatlari uchun tushumlar miqdorining 2 foizni tashkil etadi.

2)oliy tibbiyot ta'lim muassasalari hisobvaraqlarida jamlanadigan pullik o'qish kontraktlari bo'yicha tushumlar miqdorining 5 foizini tashkil etadi.

3)oliy tibbiyot ta'limi muassasalari hisobvaraqlarida jamlanadigan o'qish kontraktlarining oshirilgan stavkasi bo'yicha tushumlar miqdorining 10 foizini tashkil etadi.

4)farmasevtika va tibbiyot faoliyati bilan shug'ullanish, shu jumladan, dori-darmonlar va tubbiyot buyumlarini chakana realizatsiya qilish huquqiga litsenziyalar olish uchun talabgorlar tomonidan to'lanadigan davlar bojlari tizimidagi tushumlar miqdorining 20 foizi hisoblanadi.

Sog'lijni saqlash boshqarmasi organlari xodimlarini mukofaqlar, moddiy yordam, qo'shimcha haqlar, ustamalar va rag'batlantiruvchi to'lovlarning boshqa turlari ko'rinishida moddiy rag'batlantirish va ijtimoiy himoya qilish chora-tadbirlarini moliyalashtirish, shunningdek, ularga sanatoriya-kurort va tibbiy xizmat ko'rsatilishiga haq to'lash yo'lga qo'yilmoqda. Uy-joy bilan ta'minlashni yaxshilashga sarflanadigan xarajatlarni, shu jumladan, sog'lijni saqlash boshqarmasi organlari xodimlari va O'zbekiston Respublikasi Sog'lijni saqlash vazirligi tizimidagi tashkilotlarning tibbiyot hodimlari uchun uy-joylar qurishni tashkil etish orqali moliyalashtirilgan. Sog'lijni saqlash boshqarmasi organlari xodimlarini o'qitish, ularning malakasini oshirish va amaliyat o'tkazishini, ularning xorijiy mamlakatlarga tashriflari, O'zbekiston hududidan tashqarida o'tkaziladigan konferensiylar, seminarlar va boshqa tadbirlarda ishtiroy etishi, xizmat safariga yuborilishini tashkil etish bilan bog'liq xarajatlarni qoplash ko'zda tutilmoqda.

mustahkamlash, dasturiy mahsulotlar xarid qilish va axborot-kommunikatsiya tarmoqlarini ta'minlab turish yo'lga qo'yilgan. Oliy tibbiyot ta'lim muassasalarining iqtidorli talabalariga maxsus stipendiyalar to'lashga sarflanadigan xarajatlarni

moliyalashtirish, sog'liqni saqlash boshqarmasi organlarining kadrlar salohiyatini mustahkamlashga qaratilgan boshqa tadbirlar uchun foydalaniladi. Jamg'armaning daromadlari, shu jumladan, vaqtincha bo'sh mablag'larni tijorat banklariga joylashtirishdan foizlar tarzida olingan daromadlar soliqlarningbarcha turlaridan hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga va davlat maqsadli jamg'armalariga boshqa majburiy to'lovlardan 2021-yil 1-noyabrgacha ozod etilishi ko'zda tutilmoxda. Tibbiyot va farmasevtika xodimlari mehnatiga haq to'lash tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan tibbiyot muassasalarida vrachlikdan boshqa faoliyatni bajarayotgan oliv ma'lumotli mutaxasislar lavozimlari nomenklaturasini qayta ko'rib chiqishgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 9-noyabr kuni sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish, hududlar aholisini sifatli tibbiy xizmat bilan qamrab olish, tibbiyot muassasalarini moddiy-texnik bazasini mustahkamlash borasidagi islohatlar natijalarini tahlil qilish va istiqboldagi ustuvor vazifalarni belgilashga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi. Davlatimiz raxbari barcha islohatlardan asosiy maqsad odamlar hayotini yaxshilash ekani, sifatli tibbiy xizmat bu borada muhim o'rinn tutushini ta'kidladi. Tibbiy xizmat ko'rsatishda respublika, viloyat, tuman va qishloq bo'g'indan o'rtasida bog'liqlikni kuchaytirish zarurligi ko'rsatib o'tildi. Bunda, avvalo mahallalarda profilaktika ishlari va tibbiy ko'riklar yaxshi tashkil etilib, kasalliklarning oldi olinadi, zarur hollarda bemorlar tuman va viloyat markazlariga yuboriladi. Tuman tibbiyot birlashmalari esa kasallarni imkon qadar o'zida davolab, og'ir bemorlarni viloyat va respublika muassasalariga yo'naltiradi. Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari esa o'z ixtisosligi bo'yicha yagona metodik, texnologik, davolash va profilaktika siyosatini amalga oshirib, aholi salomatligini mustahkamlaydi. Yig'ilishda onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish masalalariga ham e'tibor qaratildi. Onalar va bolalar o'limiga sabab bo'layotgan omillarni chuqur tahlil qilib, ularni bartaraf etishga qaratilgan aniq chora-tadbirlar ishlab chiqish bo'yicha topshiriqlar berildi. Yuqumli bo'limgan kasalliklarni profilaktika qilish ishlari talab darajasida yo'lga qo'yilmagani qayd etildi. Qator ixtisoslashtirilgan markazlarning bu boradagi faoliyati tanqid qilindi. Ayrim hududlarda yuqumli kasalliklarning oldini olish va davolash ishlari ham qoniqarli emas. Jumladan, joriy yilning o'tgan davrida gepatit, o'pka sili bilan kasallanish soni respublika bo'yicha 20 foizgacha kamaygan. Shu bois respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiy markazlaridagi moddiy-texnik baza va davolash holatini o'rganib, mavjud kamchiliklarni hal etish, OITSning oldini olish, xorijiy davlatlarda mehnat qilib qaytgan shaxslarni majburiy test tekshiruvidan o'tkazishning qonuniy mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish chora-tadbirlari muhokama qilindi. Xususiy tibbiyot muassasalarini tarmog'ini yanada kengaytirish masalalariga e'tibor qaratilgan. Xususiy tibbiyotning barcha tarmoqlarini rivojlantirish, yirik shaharlarda nafaqat yurtdoshlarimiz, balki qo'shni mamlakatlar fuqarolariga ham tibbiy xizmat ko'rsatish bo'yicha katta imkoniyatlar mavjud. Shuning uchun mutassadilarga xususiy tibbiyot muassasalarini tarmog'ini kengaytirish, Toshkent, Samarqand, Andijon, kabi yirik shaharlarda "tibbiyot xab"larini barpo etish bo'yicha vazifalar topshirildi. Kasalliklarning oldini olishning eng kamxarj va samarali yo'li aholining sog'lom turmush tarzi va sog'lom ovqatlanish madaniyatiga amal qilishdir.

Afsuski, kamharakatlilik va noto'g'ri ovqatlanish oqibatida O'zbekiston aholisining yarmi ortiqcha vaznga ega, odamlarimizning 46 foizi qon tarkibida me'yordan ortiq xolesterin mavjud, 31 foizida qon bosimi yuqori. Shu bois aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini va sog'lom ovqatlanish madaniyatini targ'ib qilish orqali kasalliklar profilaktikasini kuchaytirish yuzasidan ko'rsatmalar berilgan.

Vidioselektorda tibbiyot sohasini o'rta va uzoq muddatli istiqbolda rivojlantirish yo'nalishlari muhokama qilindi. Prezident Shavkat Mirziyoyev O'zbekistonda 2025-yilgacha sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish bo'yicha konsepsiya loyihasini puxta ishlab chiqish yuzasidan ko'rsatmalar bergen. Masalan, sohani moliyalashtirishning amaldagi smeta usuli eskirgani, tibbiyot muassasalari qancha bemor davolanganligiga qarab emas, o'rinalar soniga qarab moliyalashtirib kelinayotgani qayd etildi. Bugungi zamon talablari va xorij tajribasidan kelib chiqib, sinov tariqasida mamlakatimizning 14 ta hududida bitta tibbiyot birlashmasini aholi jon boshiga va statsionar sharoitda davolanganlar soniga qarab moliyalashtirish bo'yicha topshiriq berildi.

Bugungi kunda barcha rivojlangan mamlakatlarda majburiy tibbiy sug'urta tizimi joriy etilgan. Bu orqali byudjet xarajatlarini kamaytirish, tibbiy xizmat sifatini oshirishga erishilgan. 2021-yildan boshlab yurtimizda ham majburiy tibbiy sug'urta tizimini bosqichma-bosqich joriy etish, Janubiy Koreya, Singapur, Germaniya kabi davlatlardan xalqaro konsultantlarni jalb qilgan holda, tegishli qonun va qonunosti hujjatlarini ishlab chiqish zarurligi ta'kidlandi. Bu sayharakatlarning barchasi aholining sog'lig'i uchun ishlab chiqilmoqda.

Tibbiyot sohasida davlat-xususiy sheriklik tizimini rivojlantirish, ayrim davolash muassasalarini shunday sheriklik asosida yuqori texnologik uskunalar bilan jihozlash, ularga to'liq moliyaviy mustaqillik berish bo'yicha chora-tadbirlar belgilanmoqda. Tibbiy ta'lim tizimini isloh qilish masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Nufuzli xorijiy ta'lim muassasalari filiallarini ochish, oliy o'quv yurtlari, ilmiy-tadqiqot institutlari va ixtisoslashgan tibbiyot markazlari o'rtasida integratsiyani kuchaytirish masalalari bo'yicha ham topshiriqlar bergilangan.

Kompleks dasturning ko'pgina tashkilotlarda, ayniqsa kichikroq tashkilotlarda salomatlikni mustahkamlash va kasalliklarning oldini olish dasturi bir-biri bilan norasmiy bog'liq bo'lgan, agar umuman bo'lsa, unchalik uzoq bo'lmanagan yoki umuman uzlusiz bo'lgan va ko'pincha bir yoki bir necha maxsus tadbirlardan iborat. Ma'lum bir voqeя va xotirada o'chganligi sababli tark etiladi. Haqiqatdan ham keng qamrovli dastur bir qator integral elementlardan, jumladan quyidagilarni o'z ichiga olgan rasmiy tuzulishga ega bo'lishi kerak:

*rahbariyat tomonidan tasdiqlangan va xodimlar uchun maqul bo'lgan maqsad va vazifalarning aniq bayoni;

*yuqori rahbariyat tomonidan aniq ma'qullash va ular mavjud bo'lsa, jalb qilingan mehnat tashkilotlari, istalgan maqsad va vazifalarga erishish uchun yetarli resurslarni doimiy ravishda taqsimlash;

*tashkilotda tegishli joylashtirish, sog'liqni saqlash bilan bog'liq boshqa tadbirlar bilan samarali muvofiqlashtirish va bo'linmalar va bo'limlar bo'yicha dastur rejalarini o'rta

bo'g'in rahbarlari va xodimlariga yetkazish. Ba'zi tashkilotlar ``siyosiy`` sabablarga ko'ra ishchi kuchining barcha darajalari va qatlamlari vakillaridan iborat mehnatni boshqarish qo'mitasini tuzishni, shuningdek dasturni ishlab chiqishda o'z hissalarini qo'shishni maqsadga muvofiq deb topdilar;

Sog'lijni saqlash, asosan shaxsning shaxsiy ma'suliyatni bo'lganligi sababli, ish beruvchilar yoki kasaba uyushmalari uchun bunga aralashish noo'rin va hatto tajovuskor deb hisoblaydiganlar bor. Haddan tashqari paternalistik va majburlovchi yondashuvlar qo'llanilsa, ular to'g'ri. Shu bilan birga, ish va ish joyidagi salomatlikni rag'batlantiruvchi o'zgarishlar, shuningdek sog'lijni saqlashni rag'batlantiruvchi tadbirlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish xodimlarga ushbu shaxsiy mas'uliyatni yanada samaraliroq hal qilishga imkon beruvchi xabardorlik, bilim va vositalarni ta'minlaydi.

Tug'ma sog'liq muammolari yoki orttirilgan kasalliklar tufayli rag'batlantiruvchi mukofotlarni qo'lga kiritish imkoniyatidan mahrum bo'lgan shaxslar tomonidan kamsitish haqida shikoyatlar kelib tushdi, ular sog'lijni saqlash sohasidagi tadbirlarda ishtirok etish yoki shaxsiy sog'lijni saqlashning ideal maqsadlariga erishishga to'sqinlik qiladi. Shu bilan birga, potentsial sog'liq muammolarini tuzatganlik uchun shaxslarni mukofotlash, shu bilan birga bunday muammolari bo'lmaagan shaxslarga bunday mukofotlardan voz kechish masalasi mavjud. Sog'lijni saqlash holati shaxsiy javobgarlik masalasi ekanligi to'g'risidagi to'g'ri tushunchadan kelib chiqadigan bo'lsak, odamlar sog'lig'ida nuqsonlar aniqlanganda aybdor va ularni o'z-o'zidan tuzatmaganliklari uchun aybdor bo'lishi kerak degan tushuncha paydo bo'ladi. Bunday fikrlash genetik tadqiqotlar ba'zi nuqsonlar erkin ekanligini va shuning uchun ular ba'zan o'zgartirilishi mumkin bo'lsada, ularni tuzatish qobiliyatidan tashqarida ekanligini tobora ko'proq ko'rsatayotganiga e'tibor bermaydi.

XULOSA: Salomatlikni targ'ib qilish yurtimizda kundan kunga rivojlanib bormoqda. Bunga asosan ijtimoiy omillar, usullar keng jalb qilingan. Sog'lijni saqlashning milliy tizimini jadal rivojlantirish ishlarini tizimli va sifatli tashkil etish uchun umumiy amaliyot vrachlarining, patronaj tibbiyot hamshiralarining, qishloq vrachlik punktlari, shoshilinch va tez tibbiy yordam xizmati xodimlarining lavozim maoshlari oshirildi. Respublika iqtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlarida mehnatni rag'batlantirishning bozor usullari belgilandi. Bularning barchasi asosan sog'lig'ida muammoi bor, nogiron, keksa shaxslarga qaratilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Karimov Sh.I, Muhamediyarova R.G – O'zbekistonda sog'lijni saqlash. Muammo va istiqbollar, T.,1998.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-oktabrdagi ``Aholini sifatli dori vositalari va tibbiy buyumlar bilan ta'minlash yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida``gi PQ – 411-son qarori.

3.O'zekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-maydagi Sog'lijni saqlash tizimida olib borilayotgan islohatlarni izchil davom ettirish va tibbiyot xodimlarining salohiyatini oshirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish to'g'risida PF – 6221 -son qarori.

4.uzlidep.uz